

# OMMAVIY OFERTA

## «Barsikni top» reklama aksiyasini o‘tkazish qoidalarini.

Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi Ucell rasmiy sahifasi obunachilari o‘rtasida o‘tkaziladigan yutuqli aksiya qoidalarini. «Barsikni top» reklama aksiyasini o‘tkazish bo‘yicha ommaviy oferta.

Mazkur hujjat Ucell savdo belgisi ostida xizmat ko‘rsatuvchi «COSCOM» MChJning ommaviy ofertasi hisoblanadi hamda «Barsikni top» reklama aksiyasida ishtirok etish shartlarini belgilaydi (bundan buyon matnda — Aksiya).

Aksiyada ishtirok etish fakti, ya’ni Ishtirokchilar tomonidan Ofertaning 4-bo‘limida nazarda tutilgan shartlarning bajarilishi, Ishtirokchining mazkur Oferta shartlariga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi.

## 1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Aksiya reklama maqsadlarida o‘tkaziladi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi.
- 1.2. Aksiya Ucell kompaniyasi 30 yilligining nishonlanishi munosabati bilan o‘tkaziladi.
- 1.3. Aksiya Tashkilotchisi — «COSCOM» MChJ, yuridik manzili: 100031, Toshkent shahri, V. Vohidov ko‘chasi, 118-uy.
- 1.4. Aksiya unda ishtirok etuvchi Ucell savdo ofislarida, shuningdek Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi Ucell rasmiy sahifasida o‘tkaziladi: [https://www.instagram.com/ucell\\_uz/](https://www.instagram.com/ucell_uz/).
- 1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
- 1.6. Aksiyada ishtirok etish bepul.
- 1.7. Sovrinlar soni cheklangan.

## 2. AKSIYANI O‘TKAZISH MUDDATLARI

- 2.1. Aksiya quyidagi davrda o‘tkaziladi: 2026 yil 8-iyuldan 2026 yil 8-sentabrga qadar (shu kun ham kiradi).
- 2.2. G‘oliblarni aniqlash aksiya ishtirokchilari soni belgilangan chegaraga yetgan sari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:
  - 2 000 nafar ishtirokchiga yetganda — Samsung Galaxy A56 5G o‘ynaladi;
  - 4 000 nafar ishtirokchiga yetganda — Honor X8c o‘ynaladi;

- 6 000 nafar ishtirokchiga yetganda — Samsung Galaxy A56 5G va Honor X8c o‘ynaladi;
- 8 000 nafar ishtirokchiga yetganda — Samsung Galaxy A56 5G va Honor X8c o‘ynaladi;
- 15 000 nafar ishtirokchiga yetganda — iPhone 17 Pro o‘ynaladi.

Har bir bosqich g‘oliblari tegishli ishtirokchilar soniga erishilgandan so‘ng alohida aniqlanadi.

### **3. AKSIYA ISHTIROKCHILARI**

3.1. Aksiyada quyidagi jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- Instagram ijtimoiy tarmog‘ida amaldagi akkauntga ega bo‘lgan shaxslar;
- mazkur Ofertaning 4-bo‘limida ko‘rsatilgan ishtirok etish shartlarini bajargan shaxslar.

3.2. «COSCOM» MChJ xodimlari aksiyada ishtirok etishlari mumkin emas.

3.3. Shuningdek, quyidagi shaxslar ishtirok etishlari mumkin emas: norezidentlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

### **4. ISHTIROK ETISH SHARTLARI**

4.1. Barsik joylashtirilgan Ucell savdo ofisiga tashrif buyurish.

4.2. M2M, «Hisoblagich» va «Kommunal» toifasidagi tarif rejalaridan tashqari istalgan tarif rejasiga yangi Ucell raqamini ulash.

4.3. Savdo ofisiga joylashtirilgan Barsikni topish.

4.4. Barsik bilan birgalikda foto yoki videorolik tayyorlash.

4.5. Foto yoki videorolikni Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi o‘z sahifasida post shaklida joylashtirish, Ucell rasmiy sahifasini belgilash: [https://www.instagram.com/ucell\\_uz/](https://www.instagram.com/ucell_uz/), ishtirokchi tashrif buyurgan savdo ofisi sahifasini belgilash va #ucellbarsik xeshtegini qo‘shish.

4.6. Yuqoridagi barcha shartlar bajarilgandan so‘ng fleshmobda ishtirok etishni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun sotuvchi-maslahatchiga murojaat qilish.

4.7. Har bir Ishtirokchi fleshmobda ishtirok etish uchun faqat bir marta ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin. Bir Ishtirokchini takroran ro‘yxatdan o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi va g‘oliblarni aniqlashda hisobga olinmaydi.

4.8. O‘yin bosqichlaridan birida g‘olib deb topilgan Ishtirokchi aksiyaning keyingi bosqichlarida ishtirok etmaydi.

4.9. Tashkilotchi o‘z ixtiyoriga ko‘ra, sabablarini tushuntirmagan holda, mazkur Oferta shartlari buzilganligi, huquqni suiste‘mol qilish, nopok xatti-harakatlar yoki ishtirokning halolligiga shubha tug‘diruvchi boshqa holatlar aniqlangan taqdirda, istalgan Ishtirokchining aksiyadagi ishtirokini rad etish yoki bekor qilish huquqiga ega. Spam, reklama, haqoratli mazmuni o‘z ichiga olgan yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzuvchi postlar aksiyada ishtirok etishga qabul qilinmaydi.

### **5. G‘OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI**

- 5.1. Aksiya g'oliblari tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda tasodifiy tarzda aniqlanadi.
- 5.2. Tashkilotchi g'oliblarni aniqlash jarayonini tasodifiy sonlar generatori yordamida videoga qayd etadi hamda tegishli videoyozuvni keyinchalik Instagram ijtimoiy tarmog'idagi Ucell rasmiy sahifasida e'lon qiladi.
- 5.3. Tashkilotchi o'yin jarayonini videoga va/yoki skrinshotlar orqali qayd etish huquqiga ega, jumladan:
- Ishtirokchilar ro'yxatini shakllantirish va yuklash;
  - G'oliblarni tasodifiy tanlash jarayoni;
  - O'yin natijalarini aks ettirish.
- 5.4. Qayd etilgan materiallar (video va/yoki skrinshotlar) Tashkilotchida saqlanishi hamda o'yinning shaffoqligini tasdiqlash, shuningdek yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli holatlarni hal etish maqsadida foydalanilishi mumkin.
- 5.5. O'yin natijalarining Ucell rasmiy axborot resurslarida e'lon qilinishi G'oliblar aniqlanganligining tegishli tasdig'i hisoblanadi.
- 5.6. G'oliblar soni sovrinlar soniga teng bo'ladi.
- 5.7. Bir Ishtirokchi Aksiya davomida ko'pi bilan bir marta g'olib deb topilishi mumkin.
- 5.8. O'yinlar jadvali va har bir bosqich bo'yicha sovrinlar soniga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- 5.9. Tashkilotchi o'yinlarni o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelgan taqdirda (shu jumladan bayram va dam olish kunlari, texnik yoki tashkiliy sabablar, fors-major holatlari) o'yin o'tkazish sanalarini o'zgartirish huquqiga ega.
- 5.10. O'yinning har bir bosqichi alohida o'tkaziladi.
- 5.11. Ishtirok uchun faqat ishtirokchilar ro'yxati shakllantirilayotgan vaqtda erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan postlar qabul qilinadi.
- 5.12. G'olib o'yin o'tkazilayotgan paytda qayd etilgan profil havolasi va akkaunt identifikatori asosida aniqlanadi.
- 5.13. Tashkilotchi Instagram ijtimoiy tarmog'i tashabbusi bilan postlarning o'chirilishi yoki ularga kirish imkoniyati cheklanishi uchun javobgar hisoblanmaydi.

## 6. SOVRINLAR

6.1. Sovrin jamg'armasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bosqich №	Ishtirokchilar soni chegarasi	G'oliblar soni	Sovrin jamg'armasi
1	2 000	1	Samsung Galaxy A56 5G
2	4 000	1	Honor X8c
3	6 000	2	Samsung Galaxy A56 5G va Honor X8c
4	8 000	2	Samsung Galaxy A56 5G va Honor X8c
5	15 000	1	iPhone 17 Pro

6.2. Sovrinlar pul ekvivalentiga almashtirilmaydi.

6.3. Muayyan sovrin mavjud bo'lmagan taqdirda, Tashkilotchi uni qiymati teng yoki undan yuqori bo'lgan boshqa sovrin bilan almashtirish huquqiga ega.

6.4. Reklama materiallarida keltirilgan sovrinlar tasviri sovrinlarning amaldagi tashqi ko'rinishi, komplektatsiyasi va texnik xususiyatlaridan farq qilishi mumkin.

## **7. SOVRINLARNI OLIISH TARTIBI**

7.1. Tashkilotchi g'olibni ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatilgan telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish orqali xabardor qiladi. Tashkilotchi 3 (uch) martagacha qo'ng'iroq qilishga urinadi. Agar Tashkilotchi tomonidan amalga oshirilgan 3 (uch) ta qo'ng'iroqning birortasiga ham g'olib javob bermasa, bunday g'olib Tashkilotchi bilan aloqaga chiqmagan deb hisoblanadi va sovrinni olish huquqini yo'qotadi. Bunday holatda Tashkilotchi mazkur Qoidalarga muvofiq yangi g'olibni aniqlash huquqiga ega.

7.2. Agar g'olib 18 yoshga to'lmagan shaxs bo'lsa, sovrinni olish uning qonuniy vakili — ota-onasi yoki vasiysi tomonidan amalga oshiriladi. Qonuniy vakil o'z vakolatlarini tasdiqlashi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi hamda voyaga yetmagan shaxs nomidan sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi shart.

7.3. G'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi va savdo ofisiga kelishi shart.

7.4. Sovrinni olish uchun G'olib pasport yoki ID-kartaning asl nusxasini (JShShIR ko'rsatilgan holda) taqdim etadi va sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolaydi.

7.5. Sovrinlar tegishli o'yin o'tkazilgan kundan boshlab 30 kalendar kuni ichida topshiriladi.

7.6. Sovrin qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan va sovrin amalda topshirilgan paytdan boshlab o'ynalgan va topshirilgan deb hisoblanadi.

7.7. 30 kalendar kuni davomida talab qilib olinmagan sovrinlar talab qilib olinmagan deb hisoblanadi yoki Tashkilotchining qaroriga ko'ra keyingi bosqichga o'tkazilishi mumkin.

7.8. Sovrinlar O'zbekiston Respublikasi hududida Tashkilotchining savdo ofislarida yoki manzili G'olibga qo'shimcha ravishda ma'lum qilinadigan Ucell ofisida topshiriladi.

7.9. Aksiya shartlariga mos kelmaydigan shaxslar sovrin olishga da'vogarlik qila olmaydi. Bunday shaxslar g'olib deb topilgan taqdirda, sovrin Tashkilotchi mulki bo'lib qoladi va uning ixtiyoriga ko'ra foydalaniladi.

7.10. G'olib Instagram akkauntiga egalik qilishini Tashkilotchining talabi asosida so'ralgan tasdiqlovchi harakatlarni (Direct orqali xabar yuborish va Tashkilotchi talab qilgan boshqa usullar) bajarish orqali tasdiqlashi shart.

7.11. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Aksiyada ishtirok etishga qo'yilmaydi hamda shunga muvofiq Sovrinni olishga da'vogarlik qilish huquqiga ega emas.

## **8. BOSHQA SHARTLAR VA ISHTIROKCHINING ROZILIKLARI**

- 8.1. Aksiya haqidagi ma'lumotlar [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) saytida o'zbek va rus tillarida joylashtiriladi. Tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, o'zbek tilidagi talqin ustuvor hisoblanadi.
- 8.2. Aksiyada ishtirok etish fakti Ishtirokchining mazkur Oferta shartlariga roziligini anglatadi.
- 8.3. Tashkilotchi [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) saytida yangilangan nusxasini joylashtirish orqali Ofertaga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.
- 8.4. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:
- Ishtirokchilarning Aksiya shartlari bilan tanishish imkoniyati bo'lmaganligi;
  - Ishtirokchi aybi bilan hujjatlarning o'z vaqtida olinmaganligi;
  - G'olibning sovrinni olishdan bosh tortishi;
  - uchinchi shaxslar yoki Ishtirokchi aybi bilan yuzaga kelgan texnik nosozliklar.
- 8.5. Firibgarlik yoki nopok harakatlar aniqlangan taqdirda, Tashkilotchi Ishtirokchining Aksiyadagi ishtirokini bekor qilish huquqiga ega.
- 8.6. Tashkilotchi firibgarlikning oldini olishga qaratilgan qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy etish huquqiga ega.
- 8.7. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Tashkilotchi javobgar hisoblanmaydi.
- 8.8. Ishtirokchi F.I.Sh., tug'ilgan sanasi, manzili, pasport ma'lumotlari va JShShIRni o'z ichiga olgan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va uzatishga roziligini tasdiqlaydi.
- 8.9. Tashkilotchi Instagram ijtimoiy tarmog'i faoliyati qoidalarining o'zgarishi yoki cheklanishi, shu jumladan Ishtirokchilar akkauntlarining bloklanishi uchun javobgar hisoblanmaydi.

## **8.9. Ishtirokchi quyidagilarga rozilik beradi:**

- 8.9.1. G'oliblarni Oferta bilan belgilangan tartibda aniqlashga;
- 8.9.2. Uchinchi shaxslarning da'volarini mustaqil ravishda hal etishga;
- 8.9.3. G'olib deb topilgan taqdirda, o'zi haqidagi ma'lumotlarning [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) saytida va boshqa manbalarda joylashtirilishiga;
- 8.9.4. Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq reklama intervyularida, shu jumladan radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari jarayonlarida ishtirok etishga, shuningdek Tashkilotchi va/yoki u tomonidan jalb etilgan uchinchi shaxslar tomonidan foto va video tasvirga olish ishlarini amalga oshirishga. Bundan tashqari, Ishtirokchi yaratilgan materiallardan (foto va videoyozuvlardan) qo'shimcha rozilik olinmasdan va bunday materiallar reklama xususiyatiga ega bo'lgan taqdirda ham hech qanday haq to'lanmagan holda foydalanilishiga rozilik beradi;
- 8.9.5. Sovrinni olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni mustaqil ravishda qoplashga;
- 8.9.6. Tashkilotchining Oferta bilan nazarda tutilgan holatlardan tashqari muzokaralarga kirishmaslik huquqi mavjudligiga;
- 8.9.7. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga, bunday imkoniyat bo'lmagan taqdirda esa da'vo tartibiga majburiy rioya qilgan holda O'zbekiston Respublikasi sudlarida ko'rib chiqishga rozilik beradi.

## 9. NATIJALARNI E'LON QILISH

9.1. O'yin natijalari [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) rasmiy veb-saytida va Kompaniyaning Instagram'dagi rasmiy sahifasida e'lon qilinadi.

9.2. G'oliblar ro'yxatida Instagram akkaunti nomi va qo'lga kiritilgan sovrin ko'rsatiladi.

*Mazkur Aksiya Instagram kompaniyasi tomonidan homiylik qilinmaydi, qo'llab-quvvatlanmaydi va boshqarilmaydi. Instagram Aksiyani o'tkazish uchun javobgar hisoblanmaydi.*

*"Barsik" o'rnatilgan savdo ofislar ro'yhati:*

<b>№</b>	<b>Viloyat/Hudud</b>	<b>Savdo ofisi</b>
1	Andijon	Ucell Andijon bozor
2	Andijon	Ucell Asaka
3	Andijon	Ucell Asaka 2
4	Andijon	Ucell Baliqchi
5	Andijon	Ucell Oltinko'1
6	Andijon	Ucell Qo'rg'ontepa
7	Andijon	Ucell Shaxrixon 2
8	Andijon	Ucell Xo'jaobod
9	Buxoro	Ucell-Buhoro
10	Buxoro	Ucell Buxoro 2
11	Buxoro	Ucell Jondor
12	Buxoro	Ucell Olot
13	Buxoro	Ucell Qorako'1
14	Buxoro	Ucell Romitan
15	Buxoro	Ucell Shofirkon
16	Buxoro	Ucell-Somiy
17	Jizzax	Ucell Do'stlik
18	Jizzax	Ucell Gallaorol
19	Jizzax	Ucell Jizzax
20	Qoraqalpog'iston	Ucell-Chimboy

21	Qoraqolpog'iston	Ucell Mang'it
22	Qoraqolpog'iston	Ucell-Nukus
23	Qoraqolpog'iston	Ucell Qo'ng'iro't
24	Qashqadaryo	Ucell Qarshi New
25	Qashqadaryo	Ucell Qarshi Umida
26	Navoi	Ucell Navbaxor
27	Navoi	Ucell-Navoiy
28	Navoi	Ucell Navoiy 2
29	Navoi	Ucell Qiziltepa
30	Navoi	Ucell Uchquduq
31	Navoi	Ucell-Xatirchi
32	Navoi	Ucell-Zarafshon
33	Namangan	Ucell Chorsu Namangan
34	Namangan	Ucell Davlatobod
35	Namangan	Ucell Mingbuloq
36	Namangan	Ucell Namangan
37	Namangan	Ucell Namangan New
38	Namangan	Ucell To'raqo'rg'on
39	Namangan	Ucell Uchqo'rg'on
40	Namangan	Ucell Yangiqo'rg'on
41	Samarqand	Ucell Kattaqo'rg'on New
42	Samarqand	Ucell Payshanba
43	Samarqand	Ucell Registon
44	Surxandaryo	Ucell Angor
45	Surxandaryo	Ucell Denau 2
46	Surxandaryo	Ucell Jarqo'rg'on
47	Surxandaryo	Ucell Qumqo'rg'on
48	Surxandaryo	Ucell Sherobod
49	Surxandaryo	Ucell Sho'rehi
50	Surxandaryo	Ucell Termiz

51	Sirdaryo	Ucell Guliston
52	Toshkent	Ucell Algoritm
53	Toshkent	Ucell Chirchik
54	Toshkent	Ucell G'uncha
55	Toshkent	Ucell Markazi
56	Toshkent	Ucell Qibray
57	Toshkent	Ucell Talabalar Shaharchasi
58	Toshkent	Ucell Tash4
59	Toshkent	Ucell-Chilonzor
60	Toshkent	Ucell-Chilonzor New
61	Toshkent	Ucell-Toshkent
62	Toshkent	Ucell Angren
63	Toshkent	Ucell Olmaliq
64	Farg'ona	Ucell Farg'ona
65	Farg'ona	Ucell Qo'qon 2
66	Farg'ona	Ucell Marg'ilon
67	Farg'ona	Ucell Qo'qon
68	Farg'ona	Ucell Qo'qon bozori
69	Farg'ona	Ucell Toshloq
70	Farg'ona	Ucell Yozyovon
71	Xorazm	Ucell Gurlan
72	Xorazm	Ucell-Urgench
73	Xorazm	Ucell Xiva
74	Xorazm	Ucell Xonqa